



RELIGIONIMLAR TIZIMIDA OMONIMIYA HODISASI

*To‘ychiyeva Zulayho Hamroqo‘lovna,
Guliston davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotasiya. Mazkur maqolada diniy islomiy religionimlar tizimida leksik-semantik hodisalar xususida bo‘lib, diniy leksikada omonimlarning o‘ziga xos amali xususida so‘z boradi. Maqolada diniy leksikaning o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor qaratilgan. Diniy islomiy religionimlar maqolaning illyustrativ material sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: til, lug‘at, diniy leksika, omonim, shakldosh, religionim.

ЯВЛЕНИЕ ОМОНИМИИ В СИСТЕМЕ РЕЛИГИОНИМИИ

Аннотация: В статье рассматриваются лексико-семантические явления в системе исламских религионимов, а также рассматривается специфическая роль омонимов в религиозной лексике. В статье обращается внимание на особенности религиозной лексики. Иллюстративным материалом для статьи служат исламские религионимы.

Ключевые слова: язык, словарь, религиозная лексика, омоним, однокоренные слова, религионим.

THE PHENOMENON OF HOMONYMY IN THE SYSTEM OF RELIGIONYMS

Annotation: The article discusses lexical-semantic phenomena in the system of Islamic religionyms, and the specific function of homonyms in religious lexicon. The article focuses on the specific features of religious lexicon. Islamic religionyms serve as illustrative material for the article.

Key words: language, dictionary, religious lexicon, homonym, cognate words, religionym.

Ma‘lumki, badiiy asarda qo‘llangan lug‘aviy birliklar bilan diniy leksikani aks ettiruvchi lug‘aviy birliklar o‘zaro bir-biridan ayrim xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Badiiy asarda ijodkor qahramon qiyofasini, xarakter-xususiyatlarini ochib berishda so‘zlardan erkin va ijodiy foydalansa, diniy matnlarda esa unday emas. Muallif diniy matnlar tuzishda diniy tushunchani anglatuvchi qo‘llanishda bo‘lgan lug‘aviy birliklar – religionimlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladi. Avval ham aytganimiz kabi so‘zlar ma‘no anglatadi, religionomlar esa

tushuncha anglatadi. So‘zlar ma’no nozikligini ko‘rsatishi uchun matnda kelishi talab etilsa, religionimlarda esa bunga ehtiyoj yo‘q, ular matndan tashqarida ham tushuncha anglataveradi.

Biz ushbu maqolada diniy leksikada omonimlarning o‘ziga xos amali xususida so‘z yuritamiz.

Ma’lumki, tildagi so‘zlar ma’no jihatdan bir xil (ma’nodosh), bir-biriga yaqin yoki aksincha, zid ma’noli bo‘ladi. Ba’zi so‘zlar esa ma’no jihatidan har xil bo‘lsa-da, ko‘rinishi, shakli, imlosi, talaffuzi bir xil bo‘ladi. Tilda har xil ma’noli, shakli bir xil yoki o‘xshash so‘zlar ham bor. Ma’lumki, bunday so‘zlar guruhi tilning leksik sistemasida umumlashtirilib omonimlar deyiladi.

Tilshunoslikda leksik omonimiyaning uch ko‘rinishi mavjudligi ta’kidlanadi. Bular omoleksema, omograf va omofonlar. Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatdan bo‘ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo‘ladigan bir xillik ham hisobga olinadi²⁴². Masalan, *qovoq I (inson a’zosi) – qovoq II (o‘simlik nomi)*. Omograflar esa harfiy jihatdan bir xil bo‘lib, talaffuzi farqli bo‘ladi: *tom I (uyning tomi) – tom II (jild)*. Omofonlar esa talaffuz jihatidan teng kelish hodisasidir: *bor (<bob) – bor*. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, omonimlarning tilda mavjudligi, uning shakllanishi, rivoji, ta’rifi va guruhlanishi bo‘yicha yakdil fikrni uchratmaymiz. Biroq omonimlar umumlingvistik belgiga ega bo‘lganligi uchun tilshunoslikda umumiy ta’rifga egadir. **Bu** hol tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi o‘ziga xos tabiatidan kelib chiqadi. Kishilik jamiyatida bir so‘zning har xil ma’nolari yuzaga kelishi uzoq davom etadigan jarayon ekanligini inobatga olgan holda, omonimlarni tilda qadimdan mavjud bo‘lgan hodisa sifatida e’tirof etish o‘rinli.

Terminologik tizimda terminlarning shakldoshligi alohida xususiyat kasb etadi. Terminologik tizimga xos omonimlikning ikki ko‘rinishi mavjudligini tilshunos I.Ermatov o‘z ishlarida quyidagicha ko‘rsatgan:

- a) *tashqi omonimlik*;
- b) *ichki omonimlik*.

Tashqi omonimlik deganda, biz shakldosh lug‘aviy birliklardan birining umumxalq tiliga, boshqasining terminologik tizimga mansub bo‘lishligini; *ichki omonimlik*da esa shakldoshlik xususiyatiga ega lug‘aviy birliklar har ikkisining ham terminologik tizimga xosligini nazarda tutmoqdamiz²⁴³.

Terminologik tizim doirasidagi *tashqi omonimiyaning* bir ko‘rinishida ayni bir lug‘aviy birlik har xil fan va ularning muayyan tarmog‘iga xos tushunchalar nomini bildiradi. Masalan, *o‘zak* lug‘aviy birligi *tilshunoslik, botanika, fiziologiya, tibbiyot; assimilyatsiya* lug‘aviy birligi *tilshunoslik, botanika, etnografiya; yadro* lug‘aviy birligi *fizika, botanika, matematika, tilshunoslik* fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi. Bu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning ma’nolari munosabatida hech bir aloqadorlik yo‘q.

²⁴² Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.45.

²⁴³ Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2023. – B.47-48.

Shaklan o‘xshash terminlarning turli fan sohalari terminlogiyasida qo‘llanib, omonimik paradigmalarni yuzaga chiqarishini kuzatish mumkin. Chunonchi, *giperbola* I – tilshunoslikda mubolag‘a; *giperbola* II – matematikada giperbola (konus kesimlaridan biri); *morfologiya* I – tilshunoslikda grammatikaning so‘z turkumlari, shuningdek, so‘zlarning grammatik shakllari haqidagi bo‘limi; *morfologiya* II – tibbiyotda xususan, biologiyada odam va hayvon tanasidagi organlar va to‘qimalar shakli hamda tuzilishini o‘rganadigan fan; *konvergenstsiya* I – biologiyada turli organizmlarda bir xil tashqi muhit ta‘sirida o‘xshash belgilarning paydo bo‘lishi; *konvergenstsiya* II – fizikada ikkala ko‘z o‘q chizig‘ining bir nuqtada uchrashuvi; *konvergenstsiya* III – tibbiyotda o‘xshashlik, yaqinlik; *konvergenstsiya* IV – tilshunoslikda birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi; *assotsiatsiya* I – psixologiyada muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo‘ladigan aloqa; *assotsiatsiya* II – biologiyada tuzilishi va turlari bir xil fitotsenozlar majmui; *assotsiatsiya* III – kimyoda molekulalar yoki ionlarning molekulalararo elektr tabiatli harakat kuchi ta‘sirida guruhlarga bo‘linishi; *assotsiatsiya* IV – siyosatshunoslikda uyushma, birlashma; *assotsiatsiya* V – tilshunoslikda til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko‘ra o‘zaro birlashishi va h.k. Bu yerda *giperbola*, *morfologiya*, *konvergenstsiya*, *assotsiatsiya* terminlari *ichki omonimiyani* tashkil etmoqda.

Shunga o‘xshash holat tibbiyot, tilshunoslik va boshqa sohalarda qo‘llanayotgan *konversiya*, *substansiya*, *substitutsiya*, *transformsatsiya* kabi *omonimlar qatorida* ham o‘z aksini topgan²⁴⁴.

Lekin diniy leksikada omonimiya hodisasi yo‘q hisobida. Biz bunga lug‘atlardan ham misollar topa olmadik. Diniy islomiy religionimlar o‘rtasida omonimlik hodisasi kuzatilmaydi. Ammo biri umumiste‘mol so‘zi va yana boshqasi religionim bo‘lgan holatlarda paradigma hosil qiladi. Omonimlikning bu turini tilshunos olim I.Ermatov tashqi omonimlik hodisasi sifatida talqin etadi. Biz shu fikrga qo‘shilgan holda agar omonimlar paradigmasidagi bir so‘z religionim boshqasi umumiste‘mol so‘zi bo‘lsa tashqi omonim termini bilan nomladik va shu kabi talqin etdik.

“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da quyidagi omonim so‘zlarning izohlari keltirilgan:

Asr I (arabcha, “yuz yillik”, “davr”). *Asr*, *asrdosh*, *asriy*. / XX *asr*ning oxiri. Tosh *asri*. O‘rta *asrlar*. *Asrlar* bo‘yi. *Asrlar* osha. Oltin *asrimiz*. / Shu bilan birga, bizning qizlarimiz *asrlar* bo‘yi kamtarinlik va uyatchanlik ruhida tarbiya qilingan. Sharof Rashidov, Qudratli to‘lqin.

Asr II (arabcha, “oqshom”). Diniy; eskirgan. Tushdan (peshindan) keyin, quyosh botishidan oldingi payt; shu paytda o‘qiladigan namoz, namozidigar (asli arabcha *salot as-asrun* birikmasi tarkibidagi *salot* - “namoz” so‘zi tushishi natijasida uning ma‘nosi *asr* so‘ziga yuklangan; “payt”, “payt+namoz”). *Asrga* (*asr* paytiga) yetib keeling. *Asrni* (*asr* namozini) shu

²⁴⁴ Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2023. – B.47-48.

yerda o‘qiymiz. / Bazzoz do‘konini katta o‘g‘liga qoldirib, har kun *asr* namozini uyiga kelib o‘qir edi. Mirzakalon Ismoilii, Farg‘ona tong otguncha.

Kech soat to‘rtlar, *asrdan* biroz ertaroq hukumat askari bilan xalq orasida urush boshlandi. Abdulla Qodiriy, O‘tgan kunlar²⁴⁵.

Asr so‘zi keltirilgan har ikki misolda ham payt ma’nosini anglatsada birinchi misolda payt, ikkinchi misolda nom (nomozning nomi) semasi bilan farqlangan. *Asr I* umumiste’olda faol qo‘llanadigan so‘z bo‘lib, “yuz yillik”, “davr” payt semasini anglatgan. *Asr II* diniy leksikaga oid so‘z ekanligini matndan anglab olish qiyin emas. *Asr I* umumiste’olda qo‘llanishi bilan, *Asr II* esa religionim sifatida qo‘llanib *tashqi omonimlikni* hosil qilgan.

Jin I (arabcha – ajina, diniy; *Jin* ursin seni (qarg‘ish); *Jin II* (< jin / sifat) Jin ko‘cha. Jin chiroq²⁴⁶.

Ruh I (arabcha – 1. Kayfiyat, ruhlanmoq; Uning *ruhi* baland. 2. Psixik holat, Ruhan, ruhiy; Ruhim yengil tortdi. 3. Diniy. Arvoh, jon). *Ruh II* (asl arabcha – Yumshoq, egiluvchan, oq-ko‘kish tusli metall. *Ruh* poroshogi²⁴⁷.

Shayton I (arabcha, diniy). Odamlarni din yo‘lidan ozdiruvchi afsonaviy maxluq, iblis. *Shayton II* (<shayton). Sathning tekis ekanini aniqlashda ishlatiladigan asbob²⁴⁸.

Hadis I (arabcha, yangi). Biror ishni ustalik bilan, epchil bajarish malakasi. Sen bu ishning *hadisini* olibsan. *Hadis II* (arabcha, “bayon”, “suhbat” – diniy). Payg‘ambar hayotidan hikoya. U ... qancha oyatlar, *hadislar* o‘qidi. Abdulla Qahhor, Sarob²⁴⁹.

Banda I (tojikcha) Dindorlar e’tiqodicha xudo yaratgan va butun ixtiyori xudoning amrida bo‘lgan odam. Xudoning *bandasi*. *Banda II* (ruscha < italyancha). Qurollangan o‘g‘rilar, bosqinchilar, banditlar to‘dasi, shayka. Bu *banda* Amerikada ishlab chiqarilgan qurollar bilan qurollangan²⁵⁰.

Shaklan o‘xshash religionimlarning turli fan sohalari terminologiyasi hamda umumiste’mol so‘zlarida qo‘llanib, omonimik paradigmalarni yuzaga chiqarishini kuzatish mumkin. Chunonchi, *Asr I* – umumiste’olda payt, vaqt; *Asr II* – diniy leksikada nomoz nomi (besh vaqt nomozdan birining nomi); *Jin I* – diniy leksikada odamlar ko‘zidan to‘silgan narsa, shuningdek, Alloh yaratgan uch toifadagi aqlli mavjudotlardan biri; *Jin II* – umumiste’olda sifat anglatuvchi tushuncha; *Ruh I* – ...odamga ato etiladigan va inson vafot etganida jasadni tark etib, abadiy qoladigan jon “ruh”; *Ruh I* – psixologiyada muayyan holatdagi psixologik holat; *Ruh III* – kimyo fanida yumshoq, egiluvchan, oq-ko‘kish tusli metall; *Shayton I* – diniy leksikada iblis; *Shayton II* – qurilish terminologiyasida sathning tekis ekanini aniqlashda ishlatiladigan asbob; *Hadis I* – diniy leksikada rivoyat, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so‘zlari; *Hadis II* – umumiste’olda biror ishni ustalik bilan, epchil bajarish

²⁴⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 2006. – Б.22-23.

²⁴⁶ Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan asar. –B.65-66.

²⁴⁷ Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan asar. –B.108.

²⁴⁸ Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan asar. –B.158.

²⁴⁹ Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan asar. – B.195-196.

²⁵⁰ Rahmatullayev Sh. Ko‘rsatilgan asar. – B.207.

malakasi; *Banda I* – diniy leksikada Alloh yaratgan va butun ixtiyori uning amrida bo‘lgan odam; *Banda II* – umumiste’olda qurollangan o‘g‘rilar, bosqinchilar va h.k.

Bu yerda *asr, jin, ruh, shayton, hadis, banda* religionimlari *tashqi omonimiyani* tashkil etmoqda.

Omonimlar badiiy adabiyotda nozik so‘z o‘yinlarini yaratish, so‘zlarning ma’no tovlanishlarini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular fikrni yashirin, ishorali ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Ammo diniy leksikada, xususan religionimlar tizimida boshqa bir holatni kusatamiz. Badiiy adabiyotda omonimlar umumiste’ol so‘zlari doirasida faol amal qilsa, religionimlar tizimida esa *tashqi omonimiya* hodisasi amal qiladi. Religionim omonimlardan biri diniy leksikaga tegishli bo‘lsa, ikkinchisi albatta umumiste’oldagi so‘zlar tizimiga yoki terminologik sathga tegishli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.45.
2. Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2023. – B.47-48.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 2006. – Б.22-23.
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – 164 б.
5. Умархўжаев М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 220 б.